

O'QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUVGA O'RGATISHNING IJTIMOY AHAMIYATI

Nuradilova Aselxan Dilshodxo'ja qizi

**Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika
universiteti Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)**

Mansurova Mashxura Jo'rabek qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15516007>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatishning nafaqat ta'limiy, balki ijtimoiy ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Chiroyli yozuv bola tafakkurini rivojlantirish, estetik didni shakllantirish va ijtimoiy muloqotda o'zini aniq hamda ishonchli ifoda eta olish qobiliyatini kuchaytiradi. Maqolada maktabdagi yozuv darslarining tarbiyaviy roli, yozuv madaniyatini yosh avlod ongiga singdirish yo'llari hamda bu jarayonning jamiyat rivojiga ta'siri yoritiladi.

Kalit so'zlar: chiroyli yozuv, o'quvchilar, ijtimoiy ahamiyat, yozuv madaniyati, maktab, estetik tarbiya, tafakkur.

Annotation: This article discusses the educational and social significance of teaching students neat handwriting. Beautiful handwriting contributes to the development of a child's thinking, shapes aesthetic taste, and enhances their ability to express themselves clearly and confidently in social interactions. The article highlights the educational role of handwriting lessons at school, ways to instill a culture of writing in the younger generation, and how this process affects societal development.

Keywords: neat handwriting, students, social importance, writing culture, school, aesthetic education, thinking skills.

Аннотация: В данной статье рассматривается не только образовательное, но и социальное значение обучения школьников красивому почерку. Аккуратный почерк способствует развитию мышления ребёнка, формированию эстетического вкуса и укреплению уверенности в самовыражении в социальной среде. В статье подчёркивается воспитательная роль уроков письма в школе, пути формирования культуры письма у молодёжи и влияние этого процесса на развитие общества.

Ключевые слова: красивый почерк, учащиеся, социальная значимость, культура письма, школа, эстетическое воспитание, мышление.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim sifatini oshirish, yosh avlodni har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli va estetik dunyoqarashga ega insonlar etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Prezidentimizning 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi qarorida ham ta'limda zamonaviy yondashuvlarni joriy etish, o'quvchilarning savodxonligi va tafakkur darajasini oshirish zarurligi alohida ta'kidlangan.

Mazkur jarayonda o'quvchilarning chiroyli yozuvga o'rgatilishi, ularning yozuv madaniyati va estetik tarbiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chiroyli yozuv bolalarning nutq madaniyati, fikrini izchil ifoda etish ko'nikmasini rivojlantirib, ularning jamiyatdagi faol ishtirokini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu bois, maktab ta'limida yozuv

darslari nafaqat savod o'rgatish, balki shaxsni ijtimoiy hayotga tayyorlash vositasi sifatida ham ko'rilmogda.

Aslida ta'lim-tarbiya bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topishi, shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi. O'quvchilarda chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun, birinchi navbatda diqqat, sezgi, idrok etish, xotira kabi psixofiziologik

funksiyalar ishtirok etganligini ko'ramiz. Bu bog'lanishlar miyada mustahkamlanadi va saqlanib qoladi. Bu hol o'quvchiga idrok etgan va sezgan narsalarini xotiraga muhrlash imkonini beradi. Masalan, o'quvchilarning o'qituvchi bayon qilayotgan harflar shaklini qanday yozayotganliklarini tahlil qilib ko'raylik. Bu jarayonni uning asosiy xarakteriga ko'ra, idrok etish jarayoni deb atash mumkin. Biroq bu idrokning aniq va ravshan bo'lishi uchun o'quvchi o'z irodasini ishga soladi, diqqatini harflarning shaklini to'g'ri ifodalashga jalb qiladi.

Yozayotgan so'z yoki gapning mazmunini tushunmasdan, harflarning shaklini bilmasdan ularni idrok etib bo'lmaydi. Yozish jarayoni ko'rish va eshitish sezgilari orqali idrok qilinadi. Idrok etilishi lozim bo'lgan materialni tartibga solish, o'rganiladigan manba yoki uning tasvirini yaqqol ko'rsatish, bayonning yaqqol va izchil bo'lishi, sinf doskasiga hamma o'quvchi ko'ra oladigan qilib chiroyli yozish idrok etishning muvaffaqiyatli chiqishini ta'minlaydigan omillardandir.

Birinchi sinfda yozuv mashqlarini tashkil etish birmuncha murakkab bo'lib, u bir necha davrlarga bo'linadi va bir necha xil vazifalarni o'z ichiga oladi. Bolalar o'qituvchining ko'rsatmasiga asosan, doskaga yozgan harf va so'zlarni ko'rib boradilar, so'z va bo'g'inlarni tahlil qiladilar, nuqtachalar bilan ifodalangan harflarning ustidan bo'yaydilar. O'quvchilarni yozdirishga o'rgatishdan avval to'g'ri o'tirish qoidalarini tushuntirib berish shart. Shu bilan birga o'qituvchi butun dars davomida o'quvchilarga to'g'ri o'tirish qoidalarini eslatib turishi lozim.

O'quvchilarda chiroyli, aniq va toza yozishga qiziqish uyg'otish birinchi navbatda o'qituvchiga bog'liq. Shunday ekan, har bir o'quvchini chiroyli yozuvga o'rgatish, yozuv malakalarini shakllantirish biz boshlang'ich sinf o'qituvchilarining zimmasidagi yuksak vazifadir. Chunki, husnixat ham bir san'at aslida.

Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazish mumkin. Nutqning bu shaklining o'xshash va farqli tomonlari mavjud bo'lib ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi. Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarning egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq saqlanadi.

Yozuv tufayli kishi fikr, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Namunaga qarab yozish usuli. Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdir. Har bir harf namunasi doskaga barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarga alohida - alohida ko'rsatib berilishi lozim. O'quvchining vazifasi esa doskaga eslab qolgan shakllarni harf, bo'g'in, so'zlar o'z daftarlarida to'g'ri aks ettirishdir.

Nusxa ko'chirish usuli. Bu metodni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmagan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llash mumkin. Masalan, bir o'quvchi katta A harfini yozishda xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, o'qituvchi ularni nuqtalar bilan ifodalab daftarga qalamdan yozib ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan siyoh bilan yurgizib chiqadi. Bu usul o'quvchining shu bilim haqidagi tasavvurini kengroq shakllantiradi. Bu usulning ijobiy jihatlari bilan birga salbiy jihatlari ham bor. Bunday mashqlar faqat qo'l harakatini o'stirish uchun yordam beradi xolos. Uzoq muddat bunday usulda yozgan bolalar harflarning shaklini mustaqil yoki namunaga qarab yozishda qiynaladilar.

Tasavvur orqali yozish usuli. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan usullar bilan bir qatorda, bolalarda tasavvur qilish orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi doskaga yozib ko'rsatgan harf yoki bog'lanishlarni, o'quvchilarga qanday qilib yozishni, ruchkani havoda harakatini ko'rsatib, o'quvchilar tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozishga ruxsat etadi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini o'stiradi hamda jismoniy mashqlarini ham bajarish imkonini beradi.

Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat bilim olishi, balki ularning estetik didini, madaniyati va jamiyatda to'laqonli ishtirokini shakllantirish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chiroyli yozuv — bu o'quvchining nafaqat yozuv texnikasini o'zlashtirishi, balki uning fikrlash darajasi, diqqat, xotira, estetik did va mas'uliyat hissining shakllanishiga xizmat qiluvchi muhim vositadir.

O'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatish orqali ularning nutq madaniyati yuksaladi, o'z fikrini aniq, izchil va tushunarli ifoda etish ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bu esa ularning ijtimoiy muhitda faol, madaniyatli va bilimli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, maktab ta'limining ilk bosqichlarida husnixat darslariga beriladigan e'tibor bolaning butun hayoti davomida qo'l keladigan zaruriy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Shu bois, o'quvchilarni chiroyli yozuvga o'rgatish — bu faqat didaktik vazifa emas, balki shaxs tarbiyasining, madaniy va ijtimoiy barkamollikning muhim omillaridan biri sifatida qaralishi zarur.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. <http://uza.uz>
2. Azimov Y.Y., Qo'ldoshev R.A. (2017). *Husnixatga o'rgatishning amaliy asoslari*. Toshkent: Turon Zamin Ziyo.
3. Safarova R., Inoyatova M., Shokirova M., Shermamatova L. (2021). *Alifbe* (qayta ishlangan 16-nashr). Toshkent: Respublika ta'lim markazi.
4. Muratova X. (2022). O'quvchilarda chiroyli yozish ko'nikmalarini shakllantirish. *Maktabgacha ta'lim jurnali*, (3).
5. Qobilova S.A. (2024). Chiroyli yozuv malakasini shakllantirish usullari. *Pedagogik jihatlari respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari*.
6. Axmadullin Shamil Tagirovich. (2023). *Kursiv yozuv: Bolani tez va chiroyli yozishga qanday*

